TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

IBRAGIMOV OTABEK ISMOILOVICH

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BOJXONA NAZORATINI SODDALASHTIRISHNI HUQUQIY TA'MINLASH

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 339.5(043.5)(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертатсии доктора философии (PhD)

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

IBRAGIMOV OTABEK ISMOILOVICH

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BOJXONA NAZORATINI SODDALASHTIRISHNI HUQUQIY TA'MINLASH

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.1.PhD/Yu671 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (rus, o‘zbek, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ergashev Vosidjon Yoqubovich** yuridik fanlar nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ruzmetov Xayrulla Ibadullayevich** yuridik fanlar doktori, professor
	Artikov Dilmurod Raxmatillayevich yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 15-noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1437-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 31-oktabrda tarqatildi.

(2025-yil 31-oktabrdadagi 30-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.R.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F.B.Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

I.R.Bekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning barcha mamlakatlarida tashqi savdo hajmining jadal sur'atlar bilan o'sib borishi pirovardida tashqi savdo jarayonlarini soddalashtirish, xususan, mamlakat iqtisodiy va milliy xavfsizligini ta'minlagan holda bojxona nazoratining ixcham va shaffof mexanizmini yaratish borasida bir qancha yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, xalqaro savdoni huquqiy ta'minlash maqsadida Jahon Bojxona Tashkiloti tomonidan Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro Kioto konvensiyasi (1973)[1], Jahon bojxona tashkilotining Xavfsizlik va jahonda savdoni yengillashtirishning hadli standartlari qoidalari (2005)[2], Jahon savdo tashkilotining Savdo tartibotlarini soddalashtirish bo'yicha kelishuvi (2014)[3] kabi xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi hamda bugunga kelib ko'plab mamlakatlarda mazkur konvensiya va kelishuvlar milliy qonunchilikka implementatsiya qilindi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida bojxona nazoratida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali mavjud resurslardan oqilona foydalanish, vaqt va mablag'ni tejashga zamin yaratuvchi bojxona nazoratining yangi mexanizmlarini joriy etish, tartib-taomillarni yanada soddalashtirish, o'z navbatida, sohada huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, tashqi savdo subyektlari, jumladan, tashqi savdoni tartibga solishda ishtirok etuvchi davlat idoralarining o'zaro muvofiq faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish masalalariga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilmoqda. Jahon savdosi hajmining keskin o'sishi sharoitida bojxona nazoratini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va soddalashtirish masalasi global ahamiyat kasb etmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda global savdo hajmi 32 trillion, 2024-yilda 33 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilda 33,7 trillion dollarga yetishi prognoz qilingan[4]. Bunday sharoitda an'anaviy bojxona nazorati usullari ortiqcha vaqt va mablag' sarfiga olib kelmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bojxona nazoratini soddalashtirishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data) va blokcheyn texnologiyalari bojxona nazoratini avtomatlashtirish va soddalashtirish imkonini bermoqda. Bu esa xalqaro standartlarning yanada keng joriy etilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda tashqi savdoni rag'batlantirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga imtiyoz va preferensiyalar berish, mavjud ma'muriy va texnik to'siqlarni bartaraf etishga alohida e'tibor berilib, bojxona organlari tizimida bojxona nazoratini soddalashtirishning huquqiy asoslarini ta'minlash bo'yicha qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekistonda 2019-yilda Jahon Savdo Tashkilotiga qo'shilish jarayoni qayta boshlanishi, 2020-yil 21-dekabrda Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning (Kioto konvensiyasi)

[1] Международная Конвенция (Киото, 1973) «Об упрощэнии и гармонизатсии таможенных протседур».
[2] SAFE FRAMEWORK STANDARDS. WCO 2021. https://www.wcoomd.org
[3] Соглашение ВТО об упрощэнии протседур торговли. https://tfig.unece.org/RUS/contents/WTO_Agreement.htm
[4] https://www.interfax.ru/amp/1003334

ratifikatsiya qilinishi[5] mamlakatimizda bojxona tartib-taomillarining xalqaro talablarga moslashtirilishida muhim qadam bo‘ldi. Mazkur sohada ko‘plab islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan, mamlakatimiz Jahon Savdo Tashkilotiga a’zo bo‘lmagan kam sonli davlatlardan biri bo‘lib qolmoqda. Albatta, bu bojxona nazoratini soddalashtirish, uning nazariy-huquqiy jihatlarini o‘rganish, normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini oshirish, ularning ilmiy asoslangan, ishonchli, xolis, tahliliy hamda haqqoniy axborot bilan ta’minlanganlik darajasini tadqiq etishni talab etmoqda.

Mazkur tadqiqot ishi “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o‘zgartirishlar bilan) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi (2020), “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi (2021) O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–6310-son (2021), “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–122-son farmonlari (2022), “Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma’muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4297-son qarori (2019) va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xalqaro standartlar asosida bojxona nazoratini soddalashtirishni huquqiy ta’minlash masalalari huquqshunos olimlar tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan bo‘lib, mavjud tahlillar asosan umumiy yondashuvga asoslangan.

O‘zbekistonlik olimlardan S.A. Alimbayev, A.A. Aliyev, S.A. Aripov, N.I. Asqarov, A.A. Saidov, Sh.O‘. Azizov, Sh. Boymurodov, E.J. Rahmatovlarning ilmiy tadqiqotlarida bojxona sohasining ayrim jihatlari, xususan, sohadagi davlat boshqaruvining bir qator muhim masalalari tadqiq etilgan.

Jumladan, S.A. Alimbayevning “O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida tovar ayirboshlashning tashkiliy-huquqiy muammolari”, A.A. Aliyevning “O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga xalqaro me’yorlar va tamoyillarni joriy qilish”, A.A. Saidovning “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo‘mitasining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish usullari”, Sh. Boymurodovning “Bojxona sohasida davlat boshqaruvining tashkiliy-huquqiy shakllari”, E.J. Rahmatovning “Bojxona sohasidagi davlat boshqaruvining tashkiliy-huquqiy

---

[5] O‘zbekiston Respublikasining “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiyaga (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o‘zgartirishlar bilan) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida” Qonuni, O‘RQ-654-son, 2020-yil.

asoslari” mavzularidagi ilmiy izlanishlarida xalqaro standartlarni bojxona tartib-taomillariga joriy etish, sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va zarurati, samarali bojxona ishi va bojxona nazoratini zamonaviy talablar asosida tashkil etishning ayrim jihatlari tahlil qilingan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan G. Valantiejus, A. Grainger, D. Curzi, R. Ireland, T.S. Nenedishina, J.E. Anderson, E. Wincoop, A. Behar, R. Hasan, D. Widdowson, C. Truel, M. Karlsson, T. Yasui, Kim Jae-young va boshqa olimlar tomonidan bojxona nazoratini soddalashtirishning ayrim jihatlari tahlil qilingan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan S.V. Xalipov, A.Y. Raykova, Y.T. Prjiboro, P.N. Afonin, I. Klimova, S. Agamagomedova, O.Y. Bakayeva, B.N. Gabrichidze, O.V. Grechkina, S.I. Istomin, G.V. Matviyenko, A.B. Novikov, A.F. Nozdrachev, I.V. Timoshenko va boshqalar tomonidan bojxona nazorati, uni amalga oshirishning umumiy tartibi va shakllarini huquqiy tartibga solish masalalari o‘rganilgan.

Shunga qaramasdan, O‘zbekiston Respublikasida xalqaro standartlar asosida bojxona nazoratini soddalashtirishni huquqiy ta’minlash masalasi alohida monografik tadqiqot sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xalqaro standartlar asosida bojxona nazoratini soddalashtirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekiston Respublikasida bojxona ishini huquqiy jihatdan tartibga solishning nazariy asoslari va bojxona nazoratini soddalashtirishni xalqaro standartlar asosida tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish;

O‘zbekiston Respublikasida bojxona nazoratini soddalashtirishning zamonaviy tendensiyalari va xorijiy davlatlar tajribasini tadqiq etish orqali bojxona sohasini tartibga soluvchi milliy qonunchilikni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

bojxona nazoratini soddalashtirish bo‘yicha xalqaro standartlarni tasniflash va ularni qo‘llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

bojxona nazoratini soddalashtirishga doir xalqaro standartlarni joriy etishni iqtisodiy jihatdan tasniflash;

bojxona nazorati bo‘yicha milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga muvofiqligini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish va huquqiy ta’minlashni takomillashtirish masalalarini tadqiq qilish;

bojxona nazoratini soddalashtirish jarayonlarini takomillashtirishda normativ-huquqiy hujjatlarni muvofiqlashtirishning zamonaviy yo‘llarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Oʻzbekiston Respublikasida bojxona nazoratini amalga oshirish tartibotlarini xalqaro standartlar asosida soddalashtirish bilan bogʻliq huquqiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini Oʻzbekiston va xorijiy mamlakatlarning bojxona nazoratini amalga oshirish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari, xalqaro shartnomalar, huquqni qoʻllash amaliyoti, huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari hamda huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot olib borishda tizimli va funksional tahlil, tarixiy, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, induksiya va deduksiya, mantiqiylik, kuzatish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotda qoʻllangan metodlar ilmiy yangilikka erishish uchun quyidagicha xizmat qildi:

tarixiy-huquqiy metod orqali bojxona nazoratini soddalashtirish konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari aniqlandi;

tizimli-mantiqiy tahlil metodi orqali bojxona nazoratini xalqaro standartlar asosida soddalashtirish mexanizmlarining nazariy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi;

qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali xorijiy mamlakatlarning bojxona nazoratini soddalashtirish boʻyicha tajribasi oʻrganildi;

statistik va iqtisodiy tahlil metodlari orqali bojxona nazoratini soddalashtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasi ishlab chiqildi;

prognozlash va modellashtirish metodlari orqali bojxona nazoratini soddalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yoʻnalishlari belgilandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bojxona nazorati samaradorligini oshirish maqsadida Bojxona kodeksiga bojxona auditiga oid qonunchilik normalarini kiritishning zarurligi huquqiy jihatdan asoslab berilgan;

bojxona nazoratini soddalashtirishda rasmiylashtiruvdan keyingi nazorat mexanizmini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zarurati ilmiy asoslantirilgan;

bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida tovarlarning invoys va shartnoma narxini qabul qilishning huquqiy asosini qonun bilan mustahkamlash lozimligi asoslantirilgan;

bojxona nazoratini soddalashtirishning xalqaro standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali Vakolatli iqtisodiy operatorlar maqomini huquqiy ta’minlash lozimligi asoslab berilgan;

xalqaro standartlar asosida tovarlarning kelib chiqish mamlakatini belgilash jarayonini soddalashtirish maqsadida bojxona qonunchiligiga dastlabki qaror berish amaliyotini joriy etish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash borasida bojxona nazoratini soddalashtirishning huquqiy jihatlari tahlil qilingan;

Oʻzbekiston Respublikasi hududida joylashgan erkin omborlarda saqlanayotgan tovarlarni tasarruf etishning huquqiy normalarini xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirish lozimligi asoslab berilgan;

mamlakat bojxona xizmati tizimida xalqaro standartlarni qoʻllashning zaruriyati ochib berilgan;

vakolatli iqtisodiy operatorlar institutini joriy etishning bojxona nazoratini soddalashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan;

xavfni boshqarish tizimida tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini toifalashga oid xalqaro huquqiy hujjatlar tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalari ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qoʻllangan oʻrganish usullari, ishonchli materiallar va rasmiy axborot manbalaridan foydalanilgani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining oʻzaro tahlil qilingani, ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotga joriy etilgani va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani, shuningdek, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, norma ijodkorligi va huquqni qoʻllash amaliyotini takomillashtirish hamda Bojxona huquqi va Bojxona nazorati kabi fanlarni ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bojxona nazoratining soddalashtirilgan tartib-taomillarini qoʻllash bilan bogʻliq qonun hujjatlarini takomillashtirishga, huquqni qoʻllash amaliyotini rivojlantirishga hamda bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni hozirgi zamon talablari, xorijiy tajriba va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish boʻyicha qonun hujjatlari loyihasini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro standartlar asosida bojxona nazoratini soddalashtirishni huquqiy ta’minlash boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Bojxona kodeksining 201-moddasiga “Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona organlari, agar bojxona toʻgʻrisidagi qonunchilik buzilishlari mavjud deb taxmin qilish uchun yetarli va tasdiqlangan asoslar mavjud boʻlsa, bojxona nazoratini amalga oshirishga, shu jumladan, bojxona auditi usullari asosida amalga oshirishga haqli” mazmunida oʻzgartirish kiritish yuzasidan taklif Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 1-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga qoʻshimcha va oʻzgartishlar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-748-sonli Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qoʻmitasining 2025-yil 23-maydagi 21/05-25-0032-son ma’lumotnomasi). Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar, Oʻzbekistonda bojxona nazoratini soddalashtirish bilan birga Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uygʻunlashtirish toʻgʻrisidagi konvensiya (Kioto, 1973) hamda Jahon Savdo Tashkilotining Savdo tartibotlarini soddalashtirish toʻgʻrisidagi bitimi talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishga xizmat qilgan;

bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida tovarlarning invoys va shartnoma narxini qabul qilishning huquqiy asosini qonun bilan mustahkamlashga oid taklifdan Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 27-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga bojxona tartib-taomillarini takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-913-son Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qoʻmitasining 2024-yil 13-noyabrdagi 21/05-24-0049-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida shartnoma va invoys narxini qabul qilishning amaldagi 69,3 foiz ko'rsatkichi Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo mamlakatlardagi kabi 80 foizdan ortishiga olib kelib, Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo davlatlarning bojxona to'g'risidagi qonunchiligi GATT (1994)ning VII moddasi qoidalarining to'liq implementatsiya qilinishiga xizmat qilgan;

bojxona nazoratini soddalashtirishning xalqaro standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali Vakolatli iqtisodiy operatorlar maqomini huquqiy ta'minlash bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 1-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-748-son Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2024-yil 13-noyabrdagi 21/05-24-0049-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi bojxona nazoratining soddalashtirilgan tartibini qo'llash nazarda tutilgan Vakolatli iqtisodiy operatorlik institutini tashkil etishning huquqiy asosi yaratilishiga xizmat qilgan;

tovarlarni import qilishda litsenziya berish jarayonini avtomatlashtirish (raqamlashtirish)ning huquqiy asoslarini ta'minlashga doir taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-sentabrdagi "Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan naqd valyuta mablag'larini deklaratsiyalash hamda bojxona ombori, erkin ombor va boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyatini litsenziyalash qoidalari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 443-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 29-dekabrdagi 12-15-136-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi bojxona ombori, erkin ombor va boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyatini huquqiy ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishining natijalari 5 ta ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanda, xususan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 4 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 8 paragrafdan iborat uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 144 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bojxona nazoratini soddalashtirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, unda bojxona nazorati tushunchasi va uni huquqiy jihatdan tartibga solishning nazariy asoslari, O‘zbekiston Respublikasida bojxona nazoratini rivojlanish bosqichlari, soddalashtirilgan nazoratga o‘tishning zaruriyati hamda bojxona nazoratini soddalashtirishni xalqaro standartlar asosida tartibga solishning huquqiy mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Tadqiqotchi ushbu bobda bojxona nazorati tushunchasi, uning mazmuni, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilgan. Mavzuni yoritishda ahamiyatli bo‘lgan “bojxona nazorati” va “bojxona rasmiylashtiruvi” kabi tushunchalar O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, Jahon Savdo Tashkiloti (JST) va Jahon Bojxona Tashkiloti (JBT) standartlari hamda huquqshunos va iqtisodchi olimlar (Sh. Boymurodov, S. Alimbayev, E. Rahmatov, Y. Bormotova, N. Lipatova, S. Agamagomedova) tadqiqotlari asosida izohlanib, yakunda ushbu tushunchalarga mualliflik ta’riflari ishlab chiqilgan.

Xususan, “Bojxona nazorati – bu O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta’minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan, xavfni boshqarish tizimi qo‘llangan holda va bojxona rasmiylashtiruvi yoki bojxona operatsiyalari o‘tkaziladigan yoxud tovar-transport vositalari saqlanayotgan joyda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir” – deya ta’riflanadi.

Shuningdek, dissertant tomonidan Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya (keyingi o‘rinlarda – Kioto konvensiyasi)ning bojxona nazorati bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan eng kam miqdorga kamaytirilishi lozimligi to‘g‘risidagi 6.2-standarti hamda JSTning Savdo tartibotlarini soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimi JSTga a’zo davlatlar o‘z bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish uchun bojxona auditini joriy qilishga oid talablarni bajarishlari lozimligi to‘g‘risidagi 7.5-moddasini amaldagi Bojxona kodeksi va qonunchilikka implementatsiya qilish zaruriyati asoslab berildi.

Mazkur bobda tadqiqotchi tomonidan bojxona nazorati nazariyasining rivojlanishida bir necha yondashuvlar mavjudligi asoslantirildi. Uning fikricha, quyidagi yondashuvlar ajratib ko‘rsatildi:

1. An’anaviy yondashuv (1950-1980-yillar): Bu davrda bojxona nazorati asosan chegarada amalga oshiriladigan tekshiruv sifatida talqin etilgan. M. Dexterity va R. Wilson kabi olimlar bojxona nazoratini “chegara xavfsizligini ta’minlash vositasi” sifatida o‘rganganlar.

2. Modernizatsiya davri (1980-2000-yillar): Bu davrda D. Widdowson va L. De Wulf kabi olimlar bojxona nazoratini risk-menejment asosida tashkil etish

gʻoyasini ilgari surdilar. Ular bojxona nazoratini “savdo oqimlarini boshqarish vositasi” sifatida talqin etdilar.

3. Raqamlashtirish davri (2000-yildan hozirgi kungacha): M. Karlsson, T. Yasui kabi zamonaviy olimlar bojxona nazoratini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqdilar.

Shuningdek, dissertant yuqoridagilarga qoʻshimcha ravishda, Oʻzbekistonda bojxona tizimining rivojlanishini uch bosqichga: 1-bosqich–1991-1997-yillar, 2-bosqich–1997-2016-yillar va 3-bosqich – 2016-yildan keyingi davrlarga ajratgan holda ushbu bosqichlarda bojxona nazoratini rivojlanish va soddalashtirishni huquqiy ta’minlash mexanizmlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilgan. Bunda 2016-yildan boshlanuvchi 3-bosqich – Oʻzbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi yangi tahrirda qabul qilinganligi bilan ahamiyatli boʻlib, ushbu bosqichda mazkur kodeksga xalqaro standartlardan kelib chiqib kiritilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar batafsil tahlil qilinadi. Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 1-fevraldagi OʻRQ-748-sonli qonuni bilan Bojxona kodeksining Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati deb nomlangan 201-moddasiga “Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini amalga oshirish bojxona auditi usullari asosida ham amalga oshirishi mumkin” normasi kiritilganligi natijasida ushbu bosqich milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga implementatsiya qilinishida navbatdagi qadam sifatida baholangan.

Tadqiqotchining fikricha, har bir bosqich oʻzidan oldingi bosqichning mantiqiy davomi boʻlib, ular oʻrtasida uzviy bogʻliqlik mavjud. Bu esa bosqichlarga boʻlishning ilmiy asoslanganligini koʻrsatadi.

Tadqiqotchi ushbu bobda xalqaro bojxona standartlari yoki xalqaro standartlar tushunchalarining ilmiy-nazariy jihatlarini tahlil qilgan holda xalqaro bojxona standartlari normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik adabiyotlarda “standart” koʻrinishidagina emas, balki ularning huquqiy mohiyatiga koʻra qoida, norma, tavsiya va tartiblar tarzida ham ifodalanishi mumkinligini asoslab bergan.

Xalqaro bojxona standartlarining huquqiy tabiatini tahlil qilish ularning turli yoʻnalishlarda namoyon boʻlishini koʻrsatadi. Xususan, huquqiy maqomi boʻyicha xalqaro standartlar majburiy va tavsiyaviy turlarga boʻlinadi. Majburiy standartlar JBTning Xavfsizlik standartlari, Kioto konvensiyasining asosiy standartlari va JSTning savdoni soddalashtirish boʻyicha bitimi standartlarini oʻz ichiga oladi. Tavsiyaviy standartlarga esa Kioto konvensiyasining oʻtish davri standartlari, JBTning tavsiyaviy standartlari va mintaqaviy standartlar kiradi.

Ushbu yondashuvlar doirasida bojxona operatsiyalarini avtomatlashtirish, bojxona hududlarining infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron deklaratsiyalash jarayonlarini takomillashtirish va bojxona sohasidagi ma’lumot almashuvi tizimlarini rivojlantirishga oid huquqiy normalar tahlil etilgan.

Xalqaro bojxona standartlari bojxona ishi sohasida xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan qoidalar, tartib-taomillar, tavsiyalar va eng yaxshi amaliyotlarni oʻz ichiga oladi. Ular xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon Bojxona Tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tuzilmalari tomonidan ishlab chiqiladi va keng miqyosda qoʻllanadi.

Ushbu standartlarning asosiy maqsadi bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlikni ta’minlash, transchegaraviy savdo jarayonlarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish, shuningdek, milliy bojxona ma’murchiligi tizimlarining samaradorligini oshirishdan iborat. Ular xalqaro savdo va bojxona hamkorligining asosiy prinsiplari va qadriyatlarini aks ettiradi hamda bojxona ma’murchiligi faoliyatining xalqaro darajada e’tirof etilgan me’yorlarini belgilaydi.

Xalqaro bojxona standartlari xalqaro huquqning mustaqil manbayi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, tavsiyalar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topadi. Ushbu standartlarning huquqiy maqomi va yuridik kuchi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga asoslanadi.

Xalqaro bojxona standartlarining ilmiy-nazariy asoslari va ularning huquqiy mohiyatini tadqiq etish masalalari bo‘yicha bir qator olimlar o‘z ilmiy ishlarida yondashuvlarni ilgari surganlar. Jumladan, V.N. Sidirov o‘zining “Rossiyaning JSTga qo‘shilishida Rossiya Federatsiyasi va Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining bojxona qonunchiligi” nomli monografiyasida[6] xalqaro bojxona standartlarining huquqiy tabiatini ochib berishga harakat qilgan. Uning fikricha, “xalqaro bojxona standartlari xalqaro huquqning mustaqil manbayi sifatida namoyon bo‘ladi va ular xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, tavsiyalar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topadi”.

S. Perepolkin, O. Havrylenko va A. Mazurlarning yondashuviga[7] qo‘shilgan holda xalqaro bojxona standartlarining huquqiy maqomi va yuridik kuchi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga asoslanishini ta’kidlash joiz. Biroq ularning fikriga qo‘shimcha sifatida xalqaro bojxona standartlari nafaqat bojxona nazoratini soddalashtirish, balki xalqaro savdo ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda ham muhim ahamiyat kasb etishini qayd etish lozim.

Y. Ladigina esa “Xalqaro bojxona huquqi” darsligida xalqaro bojxona standartlarining milliy bojxona qonunchiligini takomillashtirishdagi rolini yoritib bergan. Uning qayd etishicha, “xalqaro bojxona standartlarining milliy qonunchilikka implementatsiyasi bojxona ma’murchiligi samaradorligini oshirish va xalqaro savdo jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi”.

Y. Ladiginaning fikriga qo‘shilgan holda xalqaro bojxona standartlarining milliy bojxona qonunchiligini takomillashtirishdagi ahamiyatini e’tirof etish zarur. Biroq milliy qonunchilikka implementatsiya jarayonida har bir davlatning o‘ziga xos xususiyatlari va manfaatlarini ham inobatga olish muhimdir.

Xalqaro bojxona standartlari milliy bojxona qonunchiligini takomillashtirish va uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular milliy bojxona tizimlarining faoliyatini xalqaro darajada e’tirof etilgan me’yorlarga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiyasi bojxona

---

[6] Сидоров, Виктор Никифорович. Таможенное законодательство Российской Федерации и Евразийского Экономического союза в свете вступления России в ВТО. Монография, Москва – 2014, с-65,

[7] Perepolkin, Serhii & Havrylenko, Oleksandr & Mazur, Anatoliy. (2022). Formation and Development of International Customs Law: Periodisation Issues. World Customs Journal. 16. 10.55596/001c.116324. https://www.researchgate.net/publication/380826325_Formation_and_Development_of_International_Customs_Law_Periodisation_Issues

ma’murchiligi samaradorligini oshirish va xalqaro savdo jarayonlarini soddalashtirishga yordam beradi.

Xalqaro bojxona standartlarining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va ularning huquqiy mohiyatini ochib berish bojxona huquqi fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar xalqaro bojxona standartlarining huquqiy tabiatini yoritib berishga, ularning bojxona ishi va xalqaro savdoga ta’sirini baholashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro bojxona standartlari bojxona ishi sohasidagi xalqaro hamkorlikning muhim vositasi bo‘lib, milliy bojxona tizimlarining samarali faoliyat yuritishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga bojxona sohasidagi xalqaro standartlar bojxona nazoratini amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan va ko‘plab davlatlar tomonidan tan olingan hamda qo‘llanadigan normalar ekanligini ko‘rsatadi.

Dissertantning fikricha, bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlar mamlakatning tashqi iqtisodiy salohiyatini yaxshilash va xalqaro savdoda ishtirok etishdagi faolligini kuchaytirishga, iqtisodiyotning umumiy rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, bojxona tartibotlarini soddalashtirish jarayonida milliy iqtisodiyot manfaatlari va xavfsizlik nuqtayi nazaridan ehtiyotkorlik talab etilishi, ayniqsa, nazorat tizimlarining zaiflashishi kontrabanda xavfining ortishi, noqonuniy tovarlar aylanishi hamda budjet tushumlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi, shu sababli bojxona islohotlari strategik yondashuv asosida amalga oshirilib, samarali nazorat mexanizmlari bilan mustahkamlanishi lozimligi alohida ta’kidlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bojxona nazoratini soddalashtirish bo‘yicha xalqaro standartlar va milliy qonunchilik transformatsiyasi: qiyosiy-huquqiy va iqtisodiy tahlil”** deb nomlanib, unda bojxona nazoratini soddalashtirish bo‘yicha xalqaro standartlarni tasniflash, bojxona nazorati bo‘yicha milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga muvofiqligining qiyosiy-huquqiy tahlili va bojxona nazoratini soddalashtirishga doir xalqaro standartlarni joriy etishning iqtisodiy tasnifi tahlil qilingan.

Ushbu bobda Kioto konvensiyasi, JSTning Savdo tartiblarini soddalashtirish bitimi va Jahon Bojxona Tashkilotining tavsiyalari bo‘yicha bojxona nazoratining turlari va prinsiplari tasniflanib, bojxona nazoratining asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek, zamonaviy xavflarni boshqarish tizimlari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan chegarani kesib o‘tishning jismoniy holati ko‘pincha ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning aksi ekanligi qayd etilgan. Shuning uchun qo‘shni davlatlar o‘rtasida samarali va ishonchli munosabatlar o‘rnatish zaruriy shart hisoblanadi. Shu asosda Kioto konvensiyasining 3.3-, 3.4- va 3.5-standartlarida umumiy chegaradagi nazorat nuqtalarida tegishli bojxona ma’muriyatlari imkon qadar birgalikda nazoratni amalga oshirishi, bunda yonma-yon joylashgan chegara bojxona postlarida faoliyat yuritayotgan bojxona organlari xodimlari birgalikda nazoratni tashkil etishi belgilanganidan kelib chiqib, tadqiqotchi bugungi kunda mamlakatimiz bojxona organlari faqat qo‘shni va ayrim xorij davlatlari bojxona organlari bilangina ma’lumotlarni real vaqt rejimida ko‘rish imkoniyati mavjudligi, ularni yanada kengaytirish orqali o‘zaro hamkorlik kuchaytirilishi natijasida bojxona nazoratini soddalashtirish va samarasini oshirish lozimligi ilgari surilgan.

Dissertant 2005-yilning 23-iyunida JBTga a’zo 166 mamlakat vakillaridan iborat bo‘lgan milliy bojxona tashkilotlari rahbarlari tomonidan bir ovozdan qabul qilingan “Jahonda savdoni yengillashtirish va xavfsizlik standartlari” (keyingi o‘rinlarda – Xavfsizlik standartlari) jahon savdosi xavfsizligining tubdan yangi darajaga ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan omilga aylangani qayd etilgan. Xavfsizlik standartlarining mohiyati oddiy – ular xavfsiz jahon savdosining afzalliklari qayerda namoyon bo‘lishini belgilab beradi. Standartlar ikki ustunga asoslanadi: bojxona ma’muriyatlarining o‘zaro va bojxona ma’muriyatlari bilan biznes hamjamiyati orasidagi munosabatlar. Birinchi asosda 11 ta standart, ikkinchisida esa mos ravishda 7 ta standart belgilangan.

Tadqiqotchi O‘zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh bo‘lgan davlatlar bilan birinchi bosqichda bojxona postlarida mavjud bo‘lgan yuqori qiymatli nazorat uskunalari, jumladan, temiryo‘l vagonlarini, katta gabaritli konteyner va yuk avtoulovlaridagi yuklarni ochmagan holda ko‘rishga imkon beruvchi skaner qurilmalarini o‘zaro muvofiq joylashtirgan holda (bir chegara postida ham O‘zbekistonning, ham qo‘shni davlatning bunday uskunalarini joylashtirmasdan) ma’lumotlaridan birgalikda foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq, degan fikrga kelgan.

Dissertant tomonidan amalga oshirilgan qiyosiy-huquqiy tahlil bojxona nazoratini soddalashtirishning xalqaro standartlari va milliy qonunchilik o‘rtasida bir qator tafovutlar mavjudligini ko‘rsatgan. Mazkur tafovutlar asosan quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi qayd etilgan.

Bojxona auditi sohasida Kioto konvensiyasining 6.6-standartida bojxona nazorati tizimlariga audit usullariga asoslangan nazorat turi kirishi belgilangan. Shuningdek, Jahon Savdo Tashkilotining Savdo tartibotlarini soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimining 7.5-moddasida esa JSTga a’zo davlatlar o‘z bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish uchun bojxona auditini joriy qilishga oid talablarni bajarishlari lozimligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, milliy qonunchiligimizda bojxona auditining huquqiy maqomi va uni o‘tkazish tartibi to‘liq tartibga solinmaganligi xalqaro standartlarni to‘liq implementatsiya qilish zaruriyatini keltirib chiqarayotganligi asoslantirilgan.

Shuningdek, vakolatli iqtisodiy operatorlar instituti xalqaro standartlarda bojxona nazoratini soddalashtirishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida belgilangan. Biroq milliy qonunchiligimizda ushbu institut yaqinda joriy etilgan bo‘lib, uning huquqiy mexanizmlari hali takomillashtirilishni talab etadi.

“Yagona darcha” tizimi bo‘yicha xalqaro standartlar va milliy qonunchilik o‘rtasidagi tafovutlar ham sezilarli. Xalqaro standartlarda “Yagona darcha” tizimi orqali barcha ruxsat beruvchi hujjatlarni olish imkoniyati nazarda tutilgan bo‘lsa, milliy qonunchiligimizda bu jarayon hali to‘liq avtomatlashtirilmagan.

Mazkur bobda, shuningdek, xalqaro bojxona standartlari va ularning milliy qonunchilikdagi ifodasi va amaliy qo‘llanishi bo‘yicha tadqiqot olib borilib, JST va JBT kabi xalqaro tizimlarning samaradorlikni oshirish va savdoni yengillashtirishga qaratilgan talablari doirasida O‘zbekiston bojxona tizimini optimallashtirish strategiyalari ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, JSTning “Savdo tartibotlarini soddalashtirish kelishuvi” bojxona huquqi institutlari va standartlarini o‘zida mujassamlashtirgan asosiy xalqaro hujjat bo‘lgani bois ushbu konvensiya misolida unda keltirilgan xalqaro standartlar sharhi va milliy qonunchilikka muvofiqligining qiyosiy-huquqiy tahlili keltirib o‘tilgan.

Xususan, mazkur kelishuv 3 ta bo‘lim, 24 ta moddada 95 ta standart, ya’ni 1-bo‘lim 1-12-moddalarda 36 ta “texnik choralar”, 2-bo‘lim 13-22-moddalarda 39 ta rivojlanayotgan va kam rivojlangan a’zo davlatlar uchun maxsus qoidalar hamda 3-bo‘lim 23-24-moddalarda 20 ta yakuniy qoidalar va institutsional mexanizmlar”ni o‘z ichiga olib, dissertant mazkur kelishuvning asosiy – 1-bo‘lim 1-12-moddalari milliy qonunchilikka implementatsiyasi holatini 2025-yil 1-yanvar holatiga chuqur tahlil qilgan holda mazkur standartlar milliy qonunchilikka deyarli (36 ta standartning 29 tasi to‘liq va 4 tasi qisman) implementatsiya qilingan, 3 standart implementatsiya qilinmaganligi qayd etilgan.

Dissertant xalqaro standartlar asosida bojxona nazoratini soddalashtirish mamlakatlar iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlab, bojxona nazoratini soddalashtirishning xalqaro standartlarini joriy etish yuzasidan iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha chuqurroq yondashuv keltirgan.

Tadqiqotchi bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida tovarlarning invoys va shartnoma narxini qabul qilishning huquqiy asosini qonun bilan mustahkamlash orqali bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida shartnoma va invoys narxini qabul qilishning amaldagi 69,3 foiz ko‘rsatkichi JSTga a’zo mamlakatlardagi kabi 80 foizdan ortishiga olib kelib, a’zo davlatlarning bojxona to‘g‘risidagi qonunchiligi GATT (1994)ning VII moddasi qoidalarini to‘liq implementatsiya qilinishiga xizmat qilishini ta’kidlagan.

Shuningdek, mahsulotni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga bir bojxona postida rasmiylashtirgan shaxs ariza bilan murojaat etgan holda istalgan bojxona postida qayta ishlashni yakunlash huquqi berilishga oid Bojxona kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlarning iqtisodiy ahamiyati ham tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida O‘zbekiston chegaralarining xavfsizligida bojxona nazoratining o‘rni, savdo aloqalarida mavjud muammolar va kelgusida qilinishi kerak bo‘lgan ishlar o‘rganilgan. Xususan BMT ma’lumotlariga ko‘ra, samarali iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish Markaziy Osiyo davlatlarining YIM hajmini ikki barobar oshirish imkonini berishi va bu O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun ahamiyati juda muhim ekanligi, shuningdek, xalqaro savdo markazi (ITC) metodologiyasidan foydalangan holda olib borilgan hisob-kitoblar Markaziy Osiyo davlatlarida o‘zaro savdoda amalga oshirmagan 1,1 mlrd AQSh dollar miqdorida eksport salohiyati mavjudligini hisobga olib, ushbu davlatlar bilan bojxona nazoratini soddalashtirish Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida tashqi savdo aylanmasi oshishiga, mamlakatlar iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilishi doirasidagi tavsiya va takliflar berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Xalqaro standartlar asosida bojxona nazoratini soddalashtirishni huquqiy ta’minlashni takomillashtirish”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda rasmiylashtiruvni raqamlashtirish orqali bojxona nazoratini soddalashtirishni huquqiy ta’minlash hamda xalqaro standartlar asosida bojxona nazoratini soddalashtirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan Kioto konvensiyasining 3.11, 3.21 va 6.10-standartlarida bojxona idoralari raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda elektron deklaratsiyalash kabi o‘zaro manfaatli tizimlarni ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar keltirilib, nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko‘ra raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshirishi qayd etilgan.

Mazkur standartlardan kelib chiqib, tovarlarni import qilishda litsenziya berish jarayonini avtomatlashtirish (raqamlashtirish)ni huquqiy jihatdan ta’minlash bo‘yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertant Kioto konvensiyasining 6.5-standarti asosida bojxona nazoratida xavfni boshqarish va audit usullariga asoslangan nazorat va axborot texnologiyalaridan maksimal darajada foydalanish kabi zamonaviy usullarni qo‘llashning milliy huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirishni taklif etib, JBTning xavfsizlik va jahonda savdoni yengillashtirish maqsadida qabul qilingan “Hadli standartlar asoslari”ni (2005-yil) tadqiq etish asnosida mamlakatimizda Vakolatli iqtisodiy operatorlik institutini joriy qilish, ularga beriladigan yengillik va imtiyozlar mexanizmi joriy etishni ilgari surgan.

Shunga qaramay, jahonda bojxona siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolayotgani ta’kidlanib, quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

bojxona organlarining samarasiz va ortiqcha nazorat funksiyalari mavjudligi;

tartibotlarning xalqaro me’yorlar va standartlarga nomuvofiqligi;

bojxona nazoratida byurokratik to‘siqlarning saqlanib qolayotganligi;

samarali idoralararo hamkorlikning yetarli emasligi;

bojxona operatsiyalarini amalga oshirishda ko‘p vaqt sarflanayotganligi;

bojxona to‘lovlarini undirishda kuch va vositalarning haddan tashqari jamlanishi bilan bog‘liq institutsional muammolarning mavjudligi;

o‘tkazish punktlarining o‘tkazish qobiliyati past darajada ekanligi va ularning moddiy-texnik jihatdan yetarli darajada ta’minlanmaganligi;

qonunchilikka rioya etilishi uchun TIF ishtirokchilarini rag‘batlantirish mexanizmlari mavjud emasligi.

Dissertant yuqoridagilarga yechim sifatida Kioto konvensiyasining 6.6-standarti, ya’ni so‘nggi vaqtlarda jahonning ko‘plab davlatlari bojxona nazoratini soddalashtirishning eng samarali mexanizmi sifatida ta’kidlayotgan tovarlarning xavf mezonlari asosida ajratib olingan (o‘rtacha 5-20 foiz) qismini professional tekshiruvdan o‘tkazishga asoslangan bojxona auditi institutini milliy qonunchilikka to‘liq implementatsiya qilishni ilgari surgan.

Tadqiqot doirasida rivojlangan davlatlar bojxona tizimida yuqori samaradorlikka erishgan bojxona auditi prinsipining ahamiyati o‘rganilgan. Tahlillar natijalariga ko‘ra, tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona auditini nazarda tutuvchi bojxona nazoratining soddalashtirilgan shaklini qo‘llash mexanizmini tartibga soluvchi qonunosti hujjatlardagi normalarni O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga implementatsiya qilish bo‘yicha taklif ishlab chiqildi. Mazkur taklif Jahon bojxona tashkiloti tavsiyalari va xalqaro standartlar talablariga mos bo‘lib, unda bojxona auditining shakli, obyekt va predmeti, o‘tkazish tartibi va muddatlari, bojxona auditini amalga oshiruvchi organlar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilash orqali tadbirkorlarga soddalashtirilgan tartibni qo‘llash imkoniyatini qonuniy mustahkamlash maqsad qilingan.

